



O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH HOLATI TAHLILI

i.f.d. Ruziyeva Dilobar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-2945-997X

Xaydarova Sitora

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-2997-7093

Annotatsiya. Ushbu maqolada chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligida mamlakat miqyosida mavjud bo'lgan chorva mollari va iste'mol mahsulotlari, ulardan olinayotgan sut, go'sht mahsulotlarining viloyatlar bo'yicha tahlili keltirilgan. Raqamli texnologiyalar davrida chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish respublika iqtisodiyotida makro va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'siri ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik, qishloq xo'jaligi, chorva mollari, raqamli texnologiyalar, statistika qo'mitasi, fermer xo'jaliklari, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

и.ф.д. Рузиева Дилобар

Ташкентский государственный

экономический университет

Хайдарова Ситора

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В статье представлен анализ производства продуктов животноводства, отечественных продуктов животноводства и потребительских товаров, получаемой из них молочной и мясной продукции по регионам. Показано, что в эпоху цифровых технологий развитие производства продукции животноводства положительно влияет на макро- и микроэкономические показатели экономики республики.

Ключевые слова: животноводство, сельское хозяйство, животноводство, цифровые технологии, комитет по статистике, фермы, фермерские и приусадебные хозяйства, организации, осуществляющие сельскохозяйственную деятельность.

AN ANALYSIS OF THE STATE OF PRODUCTION OF LIVESTOCK PRODUCTS IN UZBEKISTAN

DSc Ruzieva Dilobar

Tashkent State University of Economy

Xaydarova Sitara

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article provides an analysis of the production of livestock products, domestically available livestock and consumer products, milk and meat products obtained from them by regions. In the era of digital technologies, the development of the production of livestock products has been shown to have a positive effect on macro- and microeconomic indicators in the economy of the republic.*

Keywords: *agriculture, livestock, digital technologies, statistics committee, farms, farmers and homesteads, organizations implementing agricultural activities.*

Kirish.

Raqamli texnologiyalar hamda raqamli iqtisodiyot shunaqangi shiddat bilan kirib keldiki, bugungi kunda nafaqat kundalik hayot tarzimizda, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish chorva mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga o'z faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi. Samarali ishlab chiqarish tizimlarini yaratish hamda atrof-muhitga sabiy ta'sirni kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan raqamli texnologiyalar roli kundan kunga sezilarli darajada o'z aksini ko'rsatmoqda.

Raqamli texnologiyalar davrida aholi turmush farovonligini ta'minlashda muhim o'rin tutadigan chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va uning iste'molini aholi orasida keng miqyosda rivojlantirish, bundan tashqari sohada olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir. Mintaqada chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni iste'mol qilishda raqamli texnologiyalarning rolini oshirish va rivojlanib borayotgan davlatimizning ijtimoiy negizi bo'lmish aholi farovonligini mustahkamlash va iste'mol savatini to'ldirish kabi muhim, dolzarb masalalarning nazariy hamda amaliy materiallar bilan to'ldirish va tahlil qilish sharoitida tadqiqot olib bordik.

Mamlakatimizda chorvachilik sohasida olib borilayotgan ishlar davlatimiz tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida 25 ta tumanda chorva klasterlari tashkil etish, sut yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.⁴⁴ Prezidentning 2022-yilning 8 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 -yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida" PQ-120-son Qarori tasdiqlandi.⁴⁵ Dastur chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish hisobiga mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan (Qaror, 2022).

Ta'kidlash joizki, mamlakat iqtisodiyotida faoliyat olib boradigan har qanday kata-yu kichik sohaning me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan qo'llab-quvvatlanishi hamda shu tarmoqning rivojlanishida muhim o'rin egallaydigan qaror, farmon va buyruqlar sohaning rivojini kafolatlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Yuqoridagi barcha me'yoriy hujjatlar sohaning mamlakat miqyosida to'xtovsiz ish olib borishini hamda aholi farovonligini

⁴⁴ <https://president.uz/oz/lists/view/6849>

⁴⁵ <https://lex.uz/docs/-5858728>

ta'minlagan holda chorva mahsulotlarining ishlab chiqarilishini zamonaviy yo'llarini yo'lga qo'yishlikka sabab bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Philip Thornton (2010) tarixiy jihatdan, chorvachilikning an'anaviy usullaridan foydalanish va chorvachilikning so'nggi o'n yilliklarda kuzatilgan hosildorligi oshishini yaqqol ko'zga ko'rinarli deb xisoblaydi. Shu bilan birga, chorvachilik mahsulotlari tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Agar chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning o'tmishdagi o'zgarishlari zotni almashtirish, chatishtirish va zot ichidagi seleksiya kabi an'anaviy usullarning kombinatsiyasi bilan qondirilgan bo'lsa, kelajakdagi o'zgarishlar yangi texnikalar hisobidan ko'proq qondiriladi. Olim so'nggi o'n yillikni tahlil qilib so'ngra natijalarini keltirib bergan, demak xozirgi raqamli texnologiyalar zamoni bu fikrlarni tasdiqlaydi.

Mozammel Hoque (2022) chorvachilik iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi va odamlarning turmush tarzi bilan bog'liq dunyodagi eng muhim tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda, deb e'tirof etadi. Chorvachilik mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shadigan muhim global tarmoqdir. Bu butun dunyo aholisining ko'pchiligi uchun oziq-ovqat xavfsizligi va tirikchilikni ta'minlaydi. 2050 yilga borib chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan jahon talabi, asosan, dunyo miqyosidagi turmush darajasining rivojlanishi hisobiga ikki baravar oshishi kutilmoqda.

Sh. Suvankulov (2020) "Chorvachilikni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish" kitobida chorvachilikni qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib, aholiga qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari bo'lgan sut, go'sht, tuxum, yengil sanoatga esa teri, jun va boshqa xom ashyolarni yetkazib berish uchun xizmat qiladi, deb ta'riflagan. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish o'zining tashkiliy va tarkibiy xususiyatlari bilan dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlaridan keskin farq qiladi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo'llarini o'rganib chiqqan olimlardan biri hisoblanadi. Bu izlanish xozirgi kunga kelib o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Amirov (2023) Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni respublika miqyosida tahlilini keltirgan va chorva ozuqa bazasini yanada ko'paytirish yo'llarini Xitoy tajribasida ishlab chiqqan.

Ruziyeva (2024) Mamlakatda ishlab chiqarish jarayonida investitsiyalarni jalb qilish to'g'risida fikr yuritgan ya'ni bu sohada chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalarni olib kirish soha rivojiga kata hissa qo'shishidan darak beradi.

Кирсанов va boshq. (2023) Chorvachilik ishlab chiqarish texnologiyasi asoslari ko'rsatilgan. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash uchun moslamalar, mashinalar va uskunalarning konstruksiyalari tavsiflagan. Mashina va asbob-uskunalarni ishlatish tizimlari qoidalari va xo'jaliklar va komplekslarni texnologik loyihalash asoslari ko'rib chiqilgan.

Schneider va Tarawali (2021) Barqaror rivojlanish maqsadlari va chorvachilik tizimlari haqida fikr yuritadi. Ushbu izlanishida olim chorvachilik sohasi mamlakatning boshqa sohalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsata oladigan soha ekanligini isbotlab berdi. Oziq-ovqat, iqtisodiyot, ijtimoiy, investitsiya sohalarida chorvachilik reytingini xisoblab bergan.


Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani yoritishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi taniqli olimlarning ilmiy asarlari, ularning mazmun, mohiyati o'rganilib, mazkur sektorni rivojlantirish va bunda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishni ifodalovchi mavjud ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil, an'anaviy tadqiqot usullaridan, ya'ni kuzatuv, taqqoslama usullari qo'llanilgan. Mavzuni yoritishda ilmiy texnikaviy axborot manbalaridan, darsliklar, o'quv

qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuot, ilmiy-amaliy anjuman to'plamlari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi. Qo'shimcha qilib 2024 yil 1 yanvar holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari zootexnikaviy va tahliliy usullar yordamida barcha toifadagi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan va yetishtirilgan chorva mahsulotlari hamda ushbu mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha viloyatlardan Navoiy viloyati tahlil qilindi⁴⁶.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda chorvachilik tarmog'ini ravnaq toptirishga qaratilgan ko'plab istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Yuzlab chorvachilik komplekslari paydo bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu loyihalar xalqimizni arzon, sifatli go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, bundan tashqari qishloqda istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dastur yo'nalishlari mamlakatda chorvachilik sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklarga turtki bo'ladi va ushbu soha rivojiga hissa qo'shadi.



1-rasm O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dastur yo'nalishlari⁴⁷

Ma'lumki, chorvachilik iqtisodiyoti quyidagi guruhlari va turlari bo'yicha o'rganiladi:

- Qoramolchilik - go'sht va sut yo'nalishi bo'yicha;
- Qo'ychilik - go'sht, jun, teri yo'nalishi bo'yicha;
- Echkichilik - jun va tivit, sut yo'nalishi bo'yicha;
- Parrandachilik - tuxum va go'sht yo'nalishi bo'yicha;
- Yilqichilik - go'sht va sut, ish hayvonlari hamda sport yo'nalishi bo'yicha;
- Tuyachilik - go'sht, jun va sut yo'nalishi bo'yicha;

⁴⁶ O'zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

⁴⁷ <https://lex.uz/docs/-5858728>

- Pillachilik bo'yicha;
- Asalarichilik bo'yicha;
- Quyunchilik bo'yicha;
- baliqchik va boshqalar bo'yicha.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining umumiy hajmi 201 969,5 mlrd.so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga oshgan. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 49,9 % ni tashkil qilgan. Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.


1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2021-2023 yillar)⁴⁸**

№	Mahsulot turi	O'lchov birligi	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	So'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar – jami (tirik vaznda)	ming tonna	2 635,1	2 725,9	2 833,3
	shu jumladan:	x	x	x	x
1.1	yirik shoxli qoramollar	ming tonna	1 987,5	2 025,7	x
1.2	qo'y va echkilar	ming tonna	409,6	418,0	x
1.3	cho'chqalar	ming tonna	3,2	2,9	x
1.4	parrandalar	ming tonna	220,7	265,7	x
1.5	boshqa turdagi mollar (otlar, tuyalar, quyonlar va boshqalar)	ming tonna	14,1	13,6	x
2	Sut – jami	ming tonna	11 274,2	11 627,2	11 968,7
2.1	shundan, sigir suti	ming tonna	11 242,7	11 599,1	x
3	Olingan tuxum – jami	mln. dona	7 788,4	8 129,2	8 487,5
3.1	shundan, tovuq tuxumi	mln. dona	7 749,4	8 089,2	x
4	Asal	tonna	14 066,9	14 700,4	15 620,6
5	Qirqib olingan jun	tonna	36 345	37 307	38 639
6	Olingan qorako'l terilar	ming dona	1 252,4	1 287,6	1 321,1
7	Pilla	tonna	22 769,9	24 300,2	25 885,8

So'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalarning jami tirik vazndagi hajmi 2 million 833 ming tonnani tashkil etdi. Shuningdek, 11,9 million tonna sut, 8,4 milliard dona tuxum, 1,3 million dona qorako'l teri, 38,6 ming tonna jun, 25,9 ming tonna pilla va 15,6 ming tonna asal ishlab chiqarishga erishildi. Aholi jon boshiga go'sht (tirik vaznda) — 76,9 kg, sut — 323,3 kg, tuxum — 228,2 donani tashkil etdi. Go'sht ishlab chiqarish 3,9 foizga o'sib, umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush 30,3 foizni tashkil etdi. Go'sht ishlab chiqarishda Samarqand-11,5%, Qashqadaryo -11,5%, Toshkent-10,8%, Buxoro-10,5% va viloyatlarining ulushi eng yuqori bo'ldi. Sut ishlab chiqarish 2,9 foizga o'sib, umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida 14,9 foiz yuqori ulushni tashkil etdi. Sutning 11,1 million tonnasi (93,2 foizi) dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan.

⁴⁸ Muallif tomonida <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2> foydalanib yaratildi




2-rasm. Go'sht (tirik vaznda), mingtonna (2019-2023 yillar)⁴⁹

Tirik vazndagi go'sht miqorini so'nggi 4 yillik bilan solishtirganda, sezilarli darajada o'sish ko'rsatgan. Ya'ni 2023 yil 2 833.3 ming tonnani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yilga qaraganda 107 300 tonnaga oshganligi aniqlandi. 2019 yilda esa 2 473.6 ming tonna tirik vazndagi go'sht miqdori 2023 yilga qaraganda 359.7 ming tonna farqni ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy tadqiqot jarayonida chorva mahsulotlarini yetishtirishda hududlar bo'yicha Navoiy viloyati tumanlarini tahlil qilindi va quyidagi ko'rsatkichlar hisobotini olindi.

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 188,3 ming tonna go'sht (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 3,7 % ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 84,0 foiz dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




3-rasm. Navoiy viloyati hududlari bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna⁵⁰

⁴⁹ O'zbekistonda qishloq xo'jaligi Faktlar va tendensiyalar 2023-yil

⁵⁰ Navoiy viloyatining statistik axborotnomasi 2023 yil

Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, hududlar orasida Xatirchi tumani yetakchi go'sht yetishtirish hududi hisoblanadi, ya'ni 2023 yil yakunlariga ko'ra 47 942 tonna tirik vazndagi go'sht yetishtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan. Eng quyi natijani Navoiy shahri ixtisosligi bo'yicha, maydoni bo'yicha chorva mahsulotlarini yetishtirishda ixtisoslashmaganligi sababli 861 tonna ko'rsatkichni tashkil qilgan.


Chorvachilikning muhim mahsuloti hisoblangan sutning asosan sigir sutidan mamlakat miqyosida foydalaniladi. Aholi tomonidan iste'molga kiritilgan sutning 95 %ga yaqinini sigir suti tashkil etadi va asosan sutning shu turi haqida so'z yuritiladi. Oxirgi yillarda sut va sut mahsulotlarining yangi assortimentini ishlab chiqarishga e'tibor berilmoqda. Buning uchun sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini rekonstruksiyalash, ularni yangi, takomillashgan texnika va texnologiyalar bilan boyitishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda. Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish-yangi fizik usullarni qo'llash yo'li bilan amalga oshirilmoqda.



4-rasm. Sog'ib olingan sut, mingtonna⁵¹

Sut ishlab chiqarish 2,9 foizga o'sib, umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida 14,9 foiz yuqori ulushni tashkil etdi. Sutning 11,1 million tonnasi (93,2 foizi) dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan. 2023 yilda sog'ib olingan sut 11 968 ming tonnani tashkil etgan va so'nggi 4 yillikda sut miqdori oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2022 yilda bu ko'rsatkich 11 629 ming tonnani o'z ichiga olib joriy yildan 300 ming tonna kamligini ko'rsatgan. Respublika miqyosida sog'ib olingan sutning atiga 5 foizini tashkil etadigan Navoiy viloyatida 2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 539,3 ming tonna sut (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 3,5 % ko'p) yetishtirildi.

⁵¹ O'zbekistonda qishloq xo'jaligi Faktlar va tendensiyalar 2023-yil



5-rasm. Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi⁵²

Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 91,4 foiz dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda, 2 foiz qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Xulosa va takliflar.

Mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydigan qishloq xo'jaligining ajralmas tarmoqlaridan biri hisoblangan chorvachilik tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan davlatimiz siyosati va izchil yangiliklar, qonun va me'yoriy hujjatlar sohaning raqobatbardoshlikka undayotgani ma'lum. Aholi farovonligini ta'minlash ustuvor vazifa ekanligidan kelib chiqqan holda, iste'mol savatining yana bir mahsulotga to'ldirilishi bu barcha uchun ijobiy holat sifatida qaraladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytib o'tish joizki, sohaning yana takomillashi uchun quyidagi takliflarni keltirib o'tish lozim.

Respublika miqyosida chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini yo'lga qo'yish. Fan-texnika taraqqiyotida bu metodlardan foydalangan holda chorva mollaridan sifat darajasi va iste'mol darajasi yuqori koeffitsientni tashkil qiluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish nafaqat xalq foydasiga balki, eksport sohasida ham o'z hissasini qo'shishi tabiiy.

Chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish. Barcha qishloq xo'jaligi tarmog'ida avtomatlashtirilgan tizimga qadamma-qadam o'tishni boshlash. Bu qulaylik inson salomatligi hamda ish unumdorligini oshirishga xizmat qilibgina qolmay, mamlakatda samaradorlik ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Fermalarda avtomatlashtirilgan texnologiyalar, sigirlarning sutini oladigan sog'in mashinalar, chorva mollari axlatini tozalaydigan va ularni uch bosqichga ajratadigan uskunalarni yo'lga qo'yish.

Go'sht, sut va boshqa chorva mahsulotlari iste'molini oshirish maqsadida mamlakat miqyosida yagona "PLATFORMA" joriy qilish. Bu platformada aholining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mahsulotga bo'lgan tanlovning turlarini (yog'liligi 1.2.3.4 foizni tashkil qiluvchi sutni tanlash), yoki go'shtning qaysi sohasini iste'mol qilishini inobatga olib tanlovni amalga oshirishi (biqin, son, lahm, qovurg'a, dumba), online xaridni amalga oshirish yo'llarini joriy qilish, aholi yashash punktlarini hisobga olgan holda yetkazib berish xizmatlarining yo'lga qo'yilganligi nafaqat vaqt tejash balki turli xil transport xarajatlarini oldini olishlikka sabab bo'ladi.

⁵² Navoiy viloyatining statistik axborotnomasi 2023 yil

Atmosferaning ifloslanishi chorvachilik sohasiga salbiy ta'sirini ko'rsatib kelayotganini hisobga olgan veterinariya sohasida kadrlar malakasini oshirish. Bunda xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanib kadrlarni mutaxassislikka tayyorlash hamda chorva mollari salomatligini xavfqa qo'yimaslik choralari o'rganib chiqish.

Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:

Amirov Sh.K. (2023) *International Scientific and Practical Conference* <https://samaguni.uz/> O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH HOLATI Pages 362-367

Mozammel Hoque (2022) *Emerging-issues-in-climate-smart-livestock-production. Biological Tools and Techniques*, Pages 473-488.

Philip K. Thornton (2010) "Livestock production: recent trends, future prospects" CGIAR/ESSP Program on Climate Change, Agriculture and Food Security (CCAFS), International Livestock Research Institute (ILRI), PO Box 30709, Nairobi 00100, Kenya. *Phil. Trans. R. Soc. B* 365, Pages 2853–2867.

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi O'zbekiston respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida PQ-120 sonli qarori.

Ruziyeva D.I. (2024) *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. "Mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb qilishning o'ziga xos xususiyatlari"* www.e-itt.uz Pages 126-134

Schneider F. & Tarawali S. (2021). *Rev. Sci. Tech. Off. Int. Epiz. Sustainable Development Goals and livestock systems*. Pages 7-19.

Suvankulov Sh., Abduganiyev Z., Xayitov T., Shodiyev X. (2020). *Chorvachilikni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish: darslik - Toshkent: Tafakkur nashriyoti*, - 356 b.

Курсанов Владимир Вячеславович, Мурусидзе Джанико Николаевич, Некрашевич Владимир Федорович, Шевцов Виктор Васильевич, Филонов Роман Федорович (2023) *Учебник "Механизация и технология животноводства"* Москва Инфра-М 1-585 ст.